



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ольга Кобзева БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
2. Oybek Rashidov O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
3. Sevara Pulatova O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
4. Ойдин Маннопова ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
5. Faxriddin Yormatov ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
6. Feruza Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
7. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
8. Muslima Bazarova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
9. Diyora Chorshanbiyeva YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
10. Муродилла Хайдаров ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
11. Xamro Rahmonov O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
12. Umrbek Salayev QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



Ikrom Nematovich Djurayev,
Guliston davlat pedagogika institute,
PhD, dotsent
ikromgdu@mail.ru

MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI

For citation: Ikrom N. Djuraev. RELATIONS BETWEEN ANCIENT NOMADIC AND SEDDEN PEOPLES OF CENTRAL ASIA. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700959>

ANNOTATSIYA

Maqolada ko‘chmanchi chorvador va o‘troq aholi o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va xo‘jalik aloqalarini tahlil qilishda, dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, o‘troq manzilgohlarning paydo bo‘lishi va ularning shaharlarga aylanishi kabi tarixiy jarayonlarni bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilishga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chmanchi chorvador, o‘troq aholi, cho‘l sivilizatsiyasi, xonaki chorvachilik, yaylov chorvachiligi, andronovo madaniyati, sруб madaniyati, statsionar manzilgoh, mozorqo‘rg‘on, ko‘chmanchi yuechji.

Икром Нематович Джураев,
Гулистанский государственный педагогический институт,
PhD, доцент
ikromgdu@mail.ru

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ДРЕВНИХ КОЧЕВЫХ И ОСЕДЛЫХ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социальные, экономические и хозяйственные отношения между кочевыми скотоводами и оседлым населением, рассматриваются исторические процессы, такие как достижения в сельском хозяйстве и животноводстве, возникновение оседлых поселений и их трансформация в города с современной точки зрения.

Ключевые слова: кочевые скотоводы, оседлое население, степная цивилизация, одомашненный скот, пастушеский скот, андроновская культура, кустарниковая культура, оседлое поселение, курган, кочевник юэчжи.

Ikrom N. Djuraev,
Gulistan State Pedagogical Institute,
PhD, Associate Professor
ikromgdu@mail.ru

RELATIONS BETWEEN ANCIENT NOMADIC AND SEDDEN PEOPLES OF CENTRAL ASIA**ABSTRACT**

This article analyzes the social, economic, and business relationships between nomadic pastoralists and the sedentary population, examining historical processes such as advances in agriculture and livestock farming, the emergence of sedentary settlements, and their transformation into cities from a modern perspective.

Index Terms: nomadic pastoralists, sedentary population, steppe civilization, domesticated livestock, pastoral livestock, Andronovo culture, shrub culture, sedentary settlement, burial mound, Yuezhi nomads.

1. Dolzarbligi. O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixining dolzarb muammolaridan biri ko'chmanchi chorvador va xo'jaligi asosi dexqonchilik bo'lgan o'troq aholining o'zaro munosabatlari masalasidir. Ushbu masalani tahlil qilishda, dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, o'troq manzilgohlarning paydo bo'lishi va ularning shaharlarga aylanishi kabi tarixiy jarayonlarni hisobga olish zarur. Ma'lum bir hududda o'troq va ko'chmanchi aholining o'zaro munosabatlarini tahlil qilishda, bu ikki xil xo'jalik turining qaysi biri, qaysi davrda yetakchi rol o'ynaganligini, jamiyat taraqqiyotida ulardan qay biriga qachon moyillik kuchli bo'lganligini va "ko'chmanchilikdan shaharlar sari" shakldagi asosiy fikrning qanchalik to'g'ri talqin etilishini e'tiborga olish zarur. U ko'pchilikni tashkil etadigan ko'chmanchi chorvachilik ustun bo'lgan bir sharoitda, aholi bir qismining o'troqlashib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanishi natijasida shaharlar sonining ortishiga sabab bo'lishi kabi konsepsiyaga tayangan (Masson, 1989. S. 90-93).

2. Metodlar. Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili asosida xronologik, ketma-ketlik, tizimli yondoshuv, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

3. Taqiqot natijalari. Ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi faqat qulay keng yaylovli joylarda mavjud bo'lib, yaylovlarning qisqarib borishi esa ko'chmanchilik doirasi torayib (ularning o'troqlashib) borishiga sabab bo'lgan. Ko'p chorvasi bor kishilar mollarini boqishda qiynalishi ularning hali chorva oyog'i yetmagan keng dashtliklarni o'zlashtirishini taqozo etgan. Ulkan mashaqqat va qurbonlar talab qiladigan bu jarayon sekinlik bilan o'n va yuz yillar mobaynida kechgan. Ikki xil xo'jalik a'zolarining o'zaro munosabatlarini o'rganayotganda, ularni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil hayot tarziga ega bo'lgan jamoalar sifatida emas, balki ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yoki keng ma'noda mehnat taqsimoti tufayli ikkiga bo'lingan jamoalar sifatida qarash lozim. Ularning bir-biriga iqtisodiy jihatdan bog'liqligi aloqalarning doimiy bo'lishini taqozo etgan (Baypakov, 2008, 53s.).

Ko'chmanchi va o'troq dehqon aholining o'zaro aloqalarini o'rganishda yagona etnik jamoaga mansub bo'lgan, sof ko'chmanchilarning ba'zi guruhlarida chorvachilik bilan birga o'troqlik va dehqonchilik elementlari mavjud bo'lganligini hisobga olish zarur (Rudenko, 1961. S. 5-9). Dehqon aholi bilan chorvadorlar o'rtasidagi farq mavjud sharoitdan kelib chiqib, ma'lum bir guruh aholining o'troq hayot tarziga o'tishi bilan yo'qolib borgan yoki aksincha holatlar ham kuzatilgan. Biroq, ma'lum bir hududdagi ba'zi o'zgarishlarga qaramay Evrosiyo aholisining xo'jaligida o'troq dehqonchilik katta ahamiyat kasb etib, dehqonchilik vohalarida urbanizatsiya jarayonlari kuchayib borgan.

"Cho'l sivilizatsiyasi" dinamikasiga e'tibor qaratib uning taraqqiyotidagi ko'chmanchilikdan shaharlashuvga va qabila ittifoqlaridan davlatchilik sari borgan bosqichlarni ko'rish mumkin. Bunda dehqonchilik va chorvachilikning tarkib topish bazasi, jamiyatning ijtimoiy bo'linishi, savdo va hunarmandchilikning paydo bo'lishi, etnik birlikning tarkib topishi, kuchli boshqaruv hokimiyatiga asos solinishi, yagona mafkura, yozuv, diniy udum va tasavvurlarning yoyilishi kabilar muhim rol o'ynagan.

Sirdaryo bo'yi va unga tutashib ketgan cho'l va tog' landshaftlari o'zining geografik xususiyati bilan ko'chmanchi chorvachilik va o'troq dehqonchilik xo'jaligining aralash holda rivojlanishini ta'minlagan. U yoki bu xo'jalikning ko'proq taraqqiy etishi o'sha joyning tabiiy

xususiyatiga bogʻliq boʻlgan. Buning oqibatida ikki xil xoʻjalik, janub va gʻarbda dehqonchilik, shimol va sharqda esa chorvachilik intensiv rivojlanib borgan. Soʻngi bronza va ilk temir davriga kelib, Fargʻona vodiysidagi Chust, Eylatan, Shoʻrobashat madaniyatlariga oʻxshash, Burgʻuliy, Qovunchi va Oʻtror-Qoratorv madaniyatlari shakllana boshlagan. Ikkinchi tomondan esa Avesto yashtlari va Eron bitiklarida taʼkidlangan koʻchmanchi chorvadorlarning xoʻjaligi tarkib topgan. Bu chorvador qabilalar hamisha Oʻrta Osiyoning janubiga koʻchmanchilar taʼsirini yoyuvchi maqomida boʻlishgan (Pardayev, 2005. 68-b.). Sirdaryo boʻyi arxeologik madaniyati bu yerdagi tarixiy-geografik, xoʻjalik-madaniy va etnik belgilarning shakllanishini oʻzida aks ettirgan. Bu qaysidir bir vaqtda butun aholining harakatchan koʻchmanchi chorvachilikka, keyinchalik esa maʼlum tabiiy va ijtimoiy omillar tufayli oʻtroq dehqonchilikka oʻtish holatini koʻrsatadi. Koʻchmanchi chorvachilikning kelib chiqishi va oʻtroqlikkacha boʻlgan taraqqiyot bosqichlari, tabiiy geografik va ekologik holat, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va siyosiy vaziyatga bogʻliq holda juda murakkab kechgan. Yevrosiyo aholisi maʼlum qismining oʻtroq dehqonchilikdan koʻchmanchi chorvachilikka (yoki aksincha) yoppasiga oʻtishi toʻgʻrisidagi fikrlarga qoʻshilib boʻlmaydi. Haqiqiy koʻchmanchilar hamisha harakatda (koʻchib yurishda) boʻlishgan.

Baʼzi geografik omillargina ularning u yoki bu darajada oʻtroq aholi bilan aloqada boʻlishiga sabab boʻlgan (Rudenko, 1967. S. 10). Koʻchmanchilar va oʻtroq aholi tinch munosabatlarining buzilishiga bir qancha sabablar boʻlgan.

Birinchidan, koʻchmanchilar hech kim egallamagan, oʻzlashtirilmagan dasht va choʻllar boʻylab harakat qilishgan, vaqt oʻtishi bilan oʻzlashtirilmagan yerlarning kam qolishi, chorvani ekin yerlariga haydashga ham sabab boʻlgan. Oʻtroq va koʻchmanchi aholining yaylov, oʻtloq va ekinzorlarga boʻlgan qiziqishi ular oʻrtasidagi toʻqnashuvlarga asosiy sabab boʻlgan. Bu chorvani va oʻz hayotini saqlash bilan bogʻliq iqtisodiy manfaatdorlik edi. Bunday holat nafaqat koʻchmanchilar va oʻtroq aholi oʻrtasida, balki koʻchmanchilarning oʻzlari oʻrtasida ham sodir boʻlgan. Bu qabilalar imkon qadar harbiy bosqinchilik yurishlaridan tiyilishga harakat qilgan (Mirzaahmedov, Odilov, Pardaev, 2000. 56 b.). Biroq, koʻchmanchilarning harbiy ittifoqlari ularni bunday bosqinlarda ishtirok etishlariga majbur etgan.

Ikkinchidan, anʼanaviy koʻchmanchi tarzidagi ekstensiv xoʻjalik qoʻshimcha bosqinlar uyushtirishni ham taqozo etgan. Bunga, baʼzi paytlardagi qurgʻoqchilik yoki qishning meʼyordan ortiq sovuq boʻlishi va choʻzilishi natijasida chorvaning qirilib ketishi sabab boʻlgan. Qahatchilik yillarida Dashti Qipchoq koʻchmanchi chorvachilik tarzida xoʻjalik yuritish uzluksiz qurgʻoqchiliklar, doimo sodir boʻlib turadigan demografik portlashlar, harbiy ittifoqlarga qoʻshilish va oʻtroq vohalarga yurish yaylovlar yetishmasligi natijasidagi ijtimoiy-siyosiy tanglik ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar yashash uchun soʻngi umid – oʻtroq vohalarga yurish edi. Bu ahvolga tushgan koʻchmanchilar oʻz jonini saqlash uchun, yirik xonlarga tobelik bildirib, yetakchi ittifoqchilar madadida, qoʻshni xududlar va oʻtroq vohalar tomon harakatlana boshlashgan. Koʻchmanchilar tomonidan uyushtirilgan koʻpgina yurishlar nafaqat oʻtroq vohaga, balki ularning oʻzlari ustiga ham boʻlgan.

Uchinchidan, oʻtroq vohalarga yurish koʻchmanchilarning emas, balki harbiy birlashmalarning harakati edi. S.A.Pletnevaning yozishicha, yurishlarga hamisha iqlim sharoitining noqulay kelishi va demografik portlashlar sabab boʻlgan (Pletneva, 1982. S. 117). Yirik chorvadorlarning koʻplab xotin va farzandlari boʻlib, ularni ham chorva, yaylov va yangi yashash hududlar bilan taʼminlash zarur edi. Aholining muntazam suratda koʻpayishi yangi yerlarga kelib joylashishni yuzaga keltirgan. Bu koʻchmanchilarning yangi yerlarga kelib joylashishi holati koʻchmanchilikning yoʻq boʻlishi degani emas, balki, yashashga yangicha moslashuvdir. Yana shunga qoʻshimcha iqtisodiy va siyosiy inqiroz davrida koʻchmanchilarning yoppasiga oʻtroq aholiga aylanishi hamdir. Shu tarzda, chorvaning qirilishi natijasida, oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlarining yetishmasligi sababli, bir necha guruh aholining xoʻjalik yuritish shakllarini oʻzgartirishi sodir boʻladi. Yangi koʻchmanchilar yoki oʻtroqlashganiga koʻp boʻlmagan koʻchib kelganlar oʻzlarining dashtdagi qarindosh qabilalari bilan aloqa bogʻlab, yangi hududdagi savdo va siyosiy ishlarda imtiyozli rol oʻynay boshlaydi. Chegaralardagi bunday vositachilik yoki oʻtkazuvchanlik ikki xil xoʻjalik vakillarining aloqalarini kuchaytiradi. Ikki tomon uchun ham

boshqa xil ko'pgina (mavsumiy) shakllarni qabul qilishga imkon beradi. Ko'chmanchilar bo'sh paytlari vohalarga kelib dala faoliyatida o'z ishchi kuchlarini sotishi ham mumkin bo'lgan. Ayriboshlashning bosh manbai (puli) chorva hisoblangan. Ko'plab chorva mahsulotlari o'troq vohalarga keltirib sotilgan. Dehqon aholi hamisha chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, yog', jun va jundan to'qilgan buyumlar, teri va h.k.) kuchli extiyoj sezardi. O'z navbatida, o'troq voha ustalari tomonidan tayorlangan ip-gazlama, kiyim-kechak, xo'jalik buyumlari va dehqonchilik mahsulotlari (bug'doy, un, meva-sabzavot va h.k.)ga dashtda hamisha talab katta bo'lgan.

Chorvador va dehqon aholining o'zaro mol ayriboshlashi odatda ko'chmanchi va o'troq aholining chegara hududi bo'ylab kechgan. Bu yerdagi karvonsaroy, yarmarka va bozorlar doimo gavjum bo'lib savdo qizg'in amalga oshgan. Bunday joylarda yirik aholi punktlari madaniyat o'choqlari bunyod etilgan. Shu asosda Sirdaryoning o'rta va quyi qismida ko'plab shaharlar vujudga kelgan. Qadimda O'rta Osiyoda o'troq va ko'chmanchi aholini qamrab olgan yagona iqtisodiy tizim (konfederatsiya) bo'lgan.

Ba'zi hollarda ko'chmanchilik bilan shug'ullangan xalqlar o'troq aholi tomonidan barpo qilingan davlatlarga yarim qaram holda kirib, ma'lum majburiyatlarni olgan bo'lsada (masalan, harbiy yordam), ba'zi hollarda esa, ko'chmanchi chorvadorlar vodiylarni bosib olib, u yerlarda o'z hukmronliklari ostida yirik davlatlar tuzganlar. Ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan Parnlar qabilasiga hukmronlik qilgan arshakiylar sulolasi asos solgan Parfiya davlati, Turk va Qang' hoqonligi hukmronligi davrida dehqonchilik vohalarida tashkil topgan davlatlarni misol o'rnida keltirish mumkin. Xuddi shunday holat Baqtriyada ham yuz beradi. Bu yerda ko'chmanchi yuechjilar mahalliy xalqlarni bo'ysundirib Kushon davlatini tuzganlar. Tadqiqotlardan ma'lumki, ko'chmanchilarda bir kishining yashash ta'minoti uchun dehqon aholiga qaraganda ko'proq yer talab qilingan. Ko'chmanchi aholi yashashi uchun jon boshiga 1,5 desyatina yer kerak bo'lsa, dehqon aholi jon boshiga hatto u yerdan primitiv foydalanganda ham 0,78 desyatina yer zarur bo'lgan. Ya'ni, ko'chmanchilarga dehqon aholiga qaraganda yer ikki baravar ko'p talab qilingan. O'rtacha chorvador oilaning 24-25 ta oti bo'lsa shu miqdordagi ot uchun 2-3 km. kv yaylov kerak bo'lgan (Kshibekov, 1980. S. 124). Doimiy ko'chishlar oldidan o'tli joylar ko'p bo'lishi uchun, ko'chmanchilar bir-biridan 10-15 km uzoqlikda joylashgan va o'zlariga ma'lum hududlarni bo'lib olishgan.

Ko'chmanchi chorvachilikda ishlab chiqaruvchi kuchlar faqat tabiiy imkoniyatlar chorvaning mahsuldor turlarini yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va yaylovlarni kengaytirishlar hisobiga oshirilgan. Bu xo'jalikdagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga bo'lgan qiziqish, tinimsiz ko'chishlarni taqozo etgan. Ba'zi olimlar, ko'chmanchilarning harakatchan tabiatiga qarab, ular hamisha o'zlarining qo'shnilariga tazyiq o'tkazib kelgan deb ta'kidlaydi To'g'ri, ko'chmanchi chorvadorlar va o'troq dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar doimo ham silliq kechavermagan. Ular o'rtasida ishchi kuchi, ishlab chiqarish va mahsulot taqsimoti ustidan hukmronlik o'rnatish uchun urushlar ham bo'lib turgan. Ko'chmanchi xalqlarning yashash tarzi va jamiyat tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, ular tabiati bosqinchilik yurishlari uyushtirishga mos emas. Bunday yurishlar faqat yaylovlar uchun bo'lishi mumkin. Feodal-patriarhal tarzidagi ko'chmanchi chorvadorlar uchun yer va chorva eng muhim hisoblangan. Biroq ko'chmanchilarning asosiy yashash tarzi chorvaga bog'liq. Kimning chorvasi ko'p bo'lsa, u yaylovlarning egasi bo'lardi. Shuning uchun yer uchun kurash xususiy chorvani saqlash va ko'paytirish uchun bo'lgan (Suleymanov, 1989. S. 67). Ular asrlar mobaynida chorvani saqlash va mahsuldorligini oshirish borasida, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, yashash uchun qulay imkoniyatlar yaratishdi.

Shubhasiz, qadimgi aholi yashash tarziga iqlimdagi o'zgarishlar ham katta ta'sir ko'rsatgan. Tabiat va jamiyat, tabiat va insonning o'zaro bog'liqligi, hozirgi zamon fanining asosiy mavzusidir. Uning dolzarbligi, ekologik inqirozning mahalliy va global tarzda kuchayib borayotganligi bilan yanada oshmoqda. Keyingi yillarda tabiatning o'zgarishi kishilik jamiyatiga qanday ta'sir etishi, inson faoliyati natijasida landshaftlarning antropogenlashib borishi, insoniyatning tabiatga ta'sir ko'rsatishi oqibatida, inson va jamiyat taraqqiyotida o'zgarishlar bo'lganini ta'kidlovchi ilmiy qarashlar kuchaydi. Bu ta'sirni migratsiya muammolarini tahlil qilish orqali ishonchli asoslash mumkin. S.A.Pletnevaning yozishicha, ko'chmanchilar o'troqlashishga, yuksak madaniyatga,

shaharlar qurishga ulgurmadilar. Kutilmagan (tabiiy va ijtimoiy) vaziyatlar tarixiy holatni o'zgartirib yubordi. Shu sababli ham ular yashash joylarini yo'qotdilar, tashlab ketdilar hamda yangi etnik va siyosiy tuzilmalarga asos soldilar (Pletneva, 1967, S. 79).

Insoniyat sanoatlashgan davrgacha butunlay yoki ma'lum tarzda tabiiy sharoitga qaram bo'lgan va bu holat xo'jalik turi va uning rivojlanishini ta'minlagan. Qanchalik qadimiylikka borgan sari, geografik omillar, kishilarning jamiyat va xo'jalik taraqqiyoti va madaniyatida hal qiluvchi rol o'ynaganligini kuzatamiz Aynan, Yevrosiyo cho'llaridagi tabiiy sharoit ko'chmanchi chorvadorlarning xo'jalik yuritish shakli va uning bosqichlarini yuz yilliklar mobaynida, yangi davrgacha saqlanib qolishi va yetib kelishini ta'minladi. Faqat o'ziga xos tabiiy sharoitlar, "Qadimgi Sharqda", daryo va tog'oldi hududlaridagi unumdor vohalarda ilk dehqonchilikning taraqqiy topishi va jamiyatning baravj rivojiga sabab bo'lgan.

Sirdaryo bo'yida mavsumiy yaylovlar ko'p. Bulardan qishda cho'lli mintaqa, yozda o'tloqlar (yaylov) mintaqasidan almashinib foydalanilgan. Shuningdek, tog'oldi hududlarda xashak jamg'arib uy chorvachiligi bilan ham shug'ullanilgan. Qadimgi Sirdaryo bo'yi hududida o'rganilgan ko'plab ko'chmanchilarga mansub manzilgohlarda yashash va xo'jalik yuritish uchun qurilgan inshootlar, kichik tog' daryolardan keltirilgan irrigatsiya qoldiqlari, chorva qo'ralari, shuningdek dehqonchilik bilan bog'liq bronza o'roq, tosh motiga, yero'choq, kichik tog' daryolari asosidagi irrigatsiya qoldiqlari o'rganilgan. L.M.Levina tadqiqotlarida cho'l va dashtliklardan tog' vodiylariga almashinadigan joylarda ko'chmanchilarning statsionar manzilgohlari qayd qilingan (Levina, 1971. S. 214). O'rta Sirdaryo bo'ylarida ham aholi o'troqlashuvi va yuksak rivojlangan shahar madaniyatiga asos solinishi aynan yuqoridagi xususiyatlar bilan mos keladi. Hududdan topilgan ko'plab manzilgohlar va shahar qoldiklari asosan, tabiiy himoyalangan dehqonchilik vodiylari bilan cho'l mintaqasi chegarasida, anhorlar va savdo yullari bo'yiga yaqin joylarda ko'payib boradi.

K.A.Akisev Yettisuvdagi Besshatir mozorqo'rg'onlarini o'rganishda yog'ochdan yasalgan sag'anaga duch kelib, qabr yasashdagi statsionar uylarga xos alomatlarini aniqlagan. Bunga tayanib, Yettisuv sak va usunlari sovuq kunlarini statsionar qishloqlarda o'tkazgan va ular faqat chorvador bo'lmagan degan fikrga keladi (Akisev, 1970. S. 72-78). Orolbo'yi saklari ham yuqori darajadagi quruvchilik san'atiga ega bo'lib, ular murakkab irrigatsiya tarmoqlari shuningdek, qishloq va shaharlar ham bunyod etishgan (Tolstov, 1960. S. 139-184).

K.M.Boypaqov, sak va usunlar davriga oid manzilgohlarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijalarini e'lon qilib, ularning xo'jaligida ko'chmanchi chorvachilik bilan birga dehqonchilik ham muhim ahamiyat kasb etganligini ta'kidlaydi (Baypakov, 2008. S. 57-75). Demak, Sak va Qang' davlatlari iqtisodida chorvachilikning turli xil ko'rinishlari – yaylov, haydama chorvachilikdan to ko'chmanchilikka va dehqonchilikning lalmi va sug'orma shakllari keng yoyilgan. Manbalar, mavjud sharoitga qarab barcha ko'chmanchilarning dehqonchilik bilan ham shug'ullanganligini ko'rsatadi. Biroq, u barcha ko'chmanchilarda bir xil kechmagan. A.Byernshtam ham O'rxun-Enasyoy turklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid asarlarda ularning dehqonchilik bilan ham shug'ullanganligini yozadi. Mavjud yozma va etnografik manbalar ham VI – VIII asrlarida haqiqiy toza ko'chmanchilar bo'lmaganligini uqtiradi.

Ko'chmanchilar hamisha dehqonchilik va ovchilik bilan shug'ullanib kelgan. Ma'lumki, ko'chmanchilarning katta qismi qishlovlarda yotadi (yotog') ba'zida kiyimlari ham o'troq aholiga xos ko'rinishda bo'lgan. Mintaqadagi, antik va ilk o'rta asrlariga oid ko'plab manzilgohlar qishlov ovullari, statsionar manzilgohlar, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaz(poselenie)lar ekanligi ma'lum bo'ldi. Atrofi saholardan iborat bo'lgan bu aholi manzilgohlari va shaharlarni mahsulot bilan ta'minlash qiyin edi. Odam omili resurslarining atrofda yo'qligi sababli, kuchli siyosiy hokimiyatning yemirilishi bilan bu manzilgohlar ham inqirozga yuz tutgan. Shuningdek, suv balansining buzilishi ham manzilgohlarning yo'q bo'lib ketishiga yoki aholining boshqa joyga ko'chib o'tishiga olib kelgan. O'rganilgan yodgorliklar taqdiri haqida to'g'ridan-to'g'ri bunday xulosa chiqarish ham to'g'ri emas.

Aytilganidek, bu manzilgohlar ko'chmanchi va dehqonchilik vohalari chegaralarida paydo bo'lganligidan ular uchun zarur mahsulotlar savdo aloqalari orqali keltirilgan. Faqat u yoki bu sabab

orqali qurilgan savdo aloqalari esa bu shaharlarga hayot bag'ishlagan. Ikkala tomon o'rtasidagi aloqalarning buzilishi esa ularning inqiroziga sabab bo'lgan (Djuraev, 2019. S. 658-661). Bu holat ko'chmanchilar uchun ham taalluqli. Ko'chmanchilar dashti va dehqonchilik vohasi tutashib ketadigan hududda joylashgan G'ulbo mozorqo'rg'onlarida ko'plab ko'chmanchilar moddiy madaniyatiga taalluqli ashyolar bilan birgalikda shahar hunarmandlari tomonidan yuksak did bilan yasalgan sopol idishlarning ham uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi (Джуроев, 2021. С. 225).

4. Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo sharoitida iqtisodiyotning uzluksiz rivoj topishi faqat o'ziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xo'jalik yurituvchi aholi madaniy aloqalari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Ikki tomon ham bir-birisiz normal hayot faoliyati ko'rsata olmagan. Ko'chmanchilar madaniy taraqqiyoti esa, asosan ularning uzluksiz o'troqlashib borishi bilan xarakterlanadi. Ko'chmanchilarning yozgi yaylovlari qishlovlaridan qancha uzoq bo'lmasin baribir ular qishloqlarida ko'p vaqt o'tkazgan. Bu ularning o'troqlikka o'tishi va dehqonchilik bilan shug'ullanishiga, o'rta asrlarda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va shaharlar paydo bo'lishiga imkon yaratgan. Ular faoliyati tufayli, tog', tog'oldi, dasht va cho'l hududlari hech qachon bo'shab qolmagan.

Demak, bunday qabilalar cho'l va dashtlardan to uzoq shimoldagi o'rmonlarning janubiy qismi – taygagacha, ya'ni chorva uchun qulay joylarda yashab, u yerlardagi mavjud imkoniyatlarni ishlab chiqarishga jalb qilishgan va bu orqali dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shib kelishgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Акишев К.А. О возникновении оседлости и земледелия у древних усуней Семиречья// По следам древних культур Казахстана. Алма-Ата, 1970. (Akishev K.A. On the emergence of settled life and agriculture among the ancient Usuns of Semirechye // In the footsteps of ancient cultures of Kazakhstan. Alma-Ata, 1970.)
2. Акишев К.А., Кушаев Г.А. Древняя культура саков и усуней долины р. Или. Алма-Ата, 1964. (Akishev K.A., Kushaev G.A. Ancient culture of the Sakas and Usuns of the river valley. Or. Alma-Ata, 1964.)
3. Байпаков К.М. Город и степь в древности: оседлость и земледелие у саков и усуней Жетысу // Культура номадов Центральной Азии. Самарканд, 2008. (Baipakov K.M. City and steppe in ancient times: settled life and agriculture among the Sakas and Usuns of Zhetysu // The Culture of the Nomads of Central Asia. Samarkand, 2008.)
4. Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. М., 1988. (Vernadsky V.I. Philosophical thoughts of a naturalist. Moscow, 1988.)
5. Джуроев И. Миграционный процесс Центрально Азиатских скотоводческих племен на юг //традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень. – 2021. – С. 225. (Djuraev I. Migration process of Central Asian pastoral tribes to the south // traditional and innovative approaches to scientific research. – 2021. – P. 225.)
6. Djuraev I. On the question of the relationship of the population of the steppes Eurasia and Central Asia in the bronze age //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 658-661.
7. Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в первой половине первого тысячелетия н.э. М., Наука, 1971. (Levina L.M. Ceramics of the lower and middle Syr Darya in the first half of the first millennium AD. Moscow, Nauka, 1971.)
8. Массон В.М. Номады и древние цивилизации: динамика и типология// Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-Ата, Наука, 1989. (Masson V.M. Nomads and ancient civilizations: dynamics and typology// Interaction of nomadic cultures and ancient civilizations. Alma-Ata, Nauka, 1989.)
9. Мирзаахмедов Ж., Одилов Ш., Пардаев М., Мақсудов Р. Қазилтепа қадимиятидан лавҳалар. А.Қодирий номидаги Халқ меъроси нашриёти. Ташкент, 2002. (Mirzaahmedov J., Odilov Sh., Pardaeв M., Maksudov R. Pictures from the antiquity of Qaziltep. People's heritage publishing house named after A. Qadiri. Tashkent, 2002.)

10. Пардаев М.Х. Северо–западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течения Сангзара) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 1995. (Pardaev M.Kh. Northwestern Ustrushana in the Early Middle Ages (based on materials from the lower reaches of the Sangzar) // Abstract of Cand. Sci. (History) diss. Tashkent, 1995.)
11. Пардаев М.Х. Жиззах воҳаси қадим ва ўрта асрлар тарихини ўрганишнинг истиқболлари ва муаммолари. Тошкент, 2006. (Pardaev M.Kh. Prospects and problems of the study of the ancient and medieval history of the Jizzakh oasis. Tashkent, 2006.)
12. Плетнева С.А. Кочевники средневековья. М., 1982. (Pletneva S.A. Nomads of the Middle Ages. Moscow, 1982.)
13. Путешествие в Восточные страны Плана Карпини и Гильома де Рубрука. Алматы, 1993. (Travel to the Eastern countries of the Plan of Carpini and Guillaume de Rubruck. Almaty, 1993.)
14. Руденко С.И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках // Материалы по отделению этнографии. Ч. 1. Географическое общество СССР. Л., 1961. (Rudenko S.I. On the Forms of Pastoral Economy and Nomads // Materials on the Department of Ethnography. Part 1. Geographical Society of the USSR. L., 1961.)
15. Сулейманов Р.Х. Формационная природа кочевого общества: проблема и методы// Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-Ата, Наука, 1989. (Suleimanov R.Kh. Formational nature of nomadic society: problem and methods// Interaction of nomadic cultures and ancient civilizations. Alma-Ata, Nauka, 1989.)
16. Тошбаев Ф.Э., Пардаев М.Х., Грицина А.А. Изучение Гульбинского могильника. Культура номадов Центральной Азии. Самарканд, 2008. (Toshbaev F.E., Pardaev M.Kh., Gritsina A.A. Study of the Gulbinsky burial ground. The culture of the nomads of Central Asia. Samarkand, 2008.)
17. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1960. (Tolstov S.P. Along the ancient deltas of Oxus and Jaxartes. M., 1960.)
18. Утби абу Наср Мухаммат ибн Абд ал-Джаббар. Тарихи Йамани// Материалы по истории Средней и Центральной АзииX- XIX вв. Ташкент, 1988. (Utbi abu Nasr Muhammad ibn Abd al-Jabbar. Tarihi Yamani // Materials on the history of Central and Middle Asia of the 10th-19th centuries. Tashkent, 1988.)
19. Бетгер Е.К. Извлечения из книги “Пути и страны” Абу-л-Касима ибн Хаукаля// Труды САГУ. Ташкент, 1957. (Betger E.K. Extracts from the book “Roads and Countries” by Abu-l-Qasim ibn Haukal// Proceedings of the Central Asian State University. Tashkent, 1957.)
20. Юсуф Хас Хаджиб. Кутадгу Билиг. Ташкент, 1971. (Yusuf Has Hajib. Kutadgu Bilig. Tashkent, 1971.)
21. Руденко С.И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках// Географическое общество СССР. Доклады отделения этнографии. Вып. 1. М., 1967. (Rudenko S.I. On the Forms of Pastoral Economy and Nomads // Geographical Society of the USSR. Reports of the Ethnography Department. Issue 1. Moscow, 1967.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000